

**KONSTITUTSIYA – FUQORONING ASOSIY HIMOYACHISI**

**Normuxamedov Behruz Bekzodovich**  
*TDYU huzuridagi M.Vosiqova nomidagi  
 Akademik litseyning 1.1 guruh talabasi*  
[normuxamedovbehruz@gmail.com](mailto:normuxamedovbehruz@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni, uning fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqaro huquqiy me'yordarga asoslanib ishlab chiqilgan bo'lib, unda inson huquqlari, tenglik va qonun ustuvorligi kabi asosiy tamoyillar o'z aksini topgan. Maqolada Konstitutsiyaning shakllanish tarixi, huquqiy tizimdagagi o'rni, sud-huquq islohotlarining uning mazmun-mohiyatini mustahkamlashdagi roli muhokama qilingan. Shuningdek, Konstitutsiyaning kundalik hayotdagi amaliy ahamiyati va fuqarolarni himoya qilishda taqdim etadigan kafolatlari misollar bilan yoritilgan. Ushbu maqola Konstitutsiyaning mazmunini chuqurroq anglash va huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan..

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, fuqarolik huquqlari, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, davlat va jamiyat, adolat tamoyillari, huquqiy kafolatlar, huquqiy davlat.

### **Konstitutsiyaning mohiyati va ahamiyati.**

Konstitutsiya har bir davlatning asosiy qonuni bo'lib, uning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Bu hujjat jamiyatning asosiy qadriyatlarini belgilaydi, davlat tuzilmasi va boshqaruv tizimini tartibga soladi, shuningdek, fuqaro huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi. Konstitutsiya nafaqat davlatning boshqaruv tizimi uchun yo'riqnomalar, balki fuqarolar va davlat o'rtaсидаги о'заро munosabatlarni mustahkamlovchi huquqiy asos hamdir.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** nafaqat milliy huquqiy tizimning poydevori, balki xalqaro hamjamiyatda mamlakatning yuksak mavqeini ta'minlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Konstitutsiyaga rioya qilish, uni chuqur o'rganish va undan amaliy hayotda foydalanish davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

## **Konstitutsiyaga bo‘lgan hurmat.**

Konstitutsiyaga hurmat – bu nafaqat huquqiy me’yorlarni bajarish, balki fuqarolik burchining asosiy ko‘rinishlaridan biridir. Har bir davlatning Konstitutsiyasi uning mustaqilligini, huquqiy tizimining asoslarini va fuqarolarining fundamental huquqlarini ifodalaydi. Shu sababli, Konstitutsiyaga hurmat nafaqat qonunga itoat qilishni, balki davlat va jamiyat barqarorligiga hissa qo‘shishni ham anglatadi.

à *Qonunlarning ustuvorligini tan olish:* O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida belgilanganidek, "O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi tan olinadi". Bu degani, Konstitutsiya barcha qonun va me’yoriy hujjatlardan ustundir va davlat hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida asosiy yo‘riqnomalar hisoblanadi.

à *Davlat organlari faoliyatining qonuniyligi:* Konstitutsianing 16-moddasiga binoan, "Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o‘z mas’uliyatini tan olgan holda faqat Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish olib borishi shart." Bu norma davlat tizimidagi har bir organ va shaxs uchun qonuniylik tamoyilini ta’minlaydi va qonun ustuvorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi asosiy huquqiy hujjatdir. Unda inson qadr-qimmati, adolat, qonun ustuvorligi kabi tamoyillar mustahkamlab qo‘yilgan. Bu hujjatga hurmat bilan munosabatda bo‘lish fuqarolik madaniyatining yuksak belgisi bo‘lib, har bir insonning huquqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## **Fuqaroning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsianing roli.**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy hujjatdir. Bu hujjat qonun ustuvorligini ta’minalash bilan birga, fuqarolarni huquqiy himoya qilishning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Misollar keltirsak:

à *Yashash huquqi:* 25-moddaga ko‘ra, "Har bir inson hayot kechirish huquqiga ega." Bu norma insonning eng muhim va asosiy huquqlaridan biri bo‘lib, davlat tomonidan kafolatlanadi.

à *Ta’lim olish huquqi:* 50-moddada belgilanganidek, "Har kim bilim olish huquqiga ega." Bepul umumiyoq o‘rtalama ta’lim olish kafolatlanadi, bu fuqarolarni bilimli va jamiyatda faol ishtirok etadigan shaxslar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Farzandi maktabga qabul qilinmagan ota-onalar uchun ushbu qarorga e’tiroz bildirishi va Konstitutsiya asosida ta’lim olish huquqini talab qilishi mumkin.\

à *Mehnat huquqi:* 42-moddaga ko‘ra, "Har bir inson mehnat qilish, ish joyini tanlash, adolatli mehnat sharoitlari va ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega." Bu norma har bir fuqaroning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladi. Ish beruvchi

tomonidan kamsitilgan fuqaro Konstitutsiyaning 42-moddasiga tayangan holda mehnat munosabatlarda tenglikni talab qilishi mumkin.

à Sud orqali himoya huquqi: 55-moddada qayd etilganidek, "Har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega." Bu fuqaro manfaatlariga zarar yetkazilgan taqdirda qonuniy himoya imkonini beradi. Bir fuqaro boshqa fuqaroning mulk huquqini buzsa yoki qandaydur nojoyi muommolarga olib kelsa jabrlanuvchi sudga murojaat qilib, Konstitutsiyaga binoan o‘z mulkini himoya qilishi mumkin.

**Xulosa:** *Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya – bu nafaqat qog‘ozdagি qonunlar majmui , balki fuqarolar huquqlarining ishonchli himoyachisi va jamiyat barqarorligining kafolatidir.*

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy hujjatlari sharhi.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va farmonlari
- 4.Xalqaro huquqiy hujjatlar va konventsiyalar
- 5.Huquqiy maqolalar va sharhlar.